

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”


G.Sh.Rixsiyeva

2025-yil “30” 06

**O'RGANILAYOTGAN MINTAQA (MAMLAKAT) GEOGRAFIYASI VA
TARIXI (ARAB MAMLAKATLARI)
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 230000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha)


Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti dekani


Askarov M.

Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi
kafedrasi mudiri


Ikromov Sh.I

ARM boshlig'i


Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi MAMI308		O'quv yili 2026-2027	Semestr 3	Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4,4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) geografiyasi va tarixi (Arab mamiakatiari)	96	144	240	
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi – talabalarga O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) geografiyasi va tarixi fanining nazariy va amaliy asoslari, arab mamlakatlari tabiiy va iqtisodiy geografiyasining o'ziga xos xususiyatlari, ushbu xususiyatlarning mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni, shuningdek, Arab davlatlari tarixini davrlashtirishning asosiy tamoyillari, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududida davlatlar tashkil etilishidan boshlab muhim tarixiy davmi yoritishga oid bir qator masalalarni, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududidagi etno-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, moddiy madaniyat xususiyatlarini o'rgatish hamda ularda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malaka hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – arab davlatlarining geografik joylashuvi, mintaqaviy xususiyatlari, arab davlatlari tarixining kelib chiqishini aniqlash va arab etnosining paydo bo'lish bosqichlarini (miloddan avvalgi I ming yillik - X asr) kuzatish; mamlakat tarixining eng qadimgi davrlaridan to hozirga qadar bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar, arab jamiyatining evolyutsion xususiyatlarini ochib berish; Arab davlatlarining xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarini ko'rib chiqish; talabalarda Arab davlatlari tarixiga yagona jarayon sifatida qarashlarini shakllantirish, etno-konfessiyaviy institutlarning, shuningdek, ularning etnik-madaniy xususiyatlarini chuqur bilish asosida xorijiy Osiyo, bu holda arab, diasporalarning tarixiy rivojlanishini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish, Arab respublikalari va monarxiyalarining tarixiy retrospektiv va zamonaviy Yevropa va Osiyodagi o'rni aniqlash kabi masalalarni ochib berish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Moskva davlat universitetining M.V.Lomonosov nomidagi Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti (QS 93) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://iaas.msu.ru/wp-content/uploads/2023/09/uch-plan-bak-2023.pdf</p>				

II. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

II.1. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

*O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) geografiyasi va tarixi
(Arab mamlakatlari) fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlar uchun quyidagi
mavzular tavsiya etiladi:*

1-mavzu. Janubi-G'arbiy Osiyo mintaqasining tabiiy geografiyasi: chegaralari, relyefi, gidrografiyasi, iqlimi

Janubi-G'arbiy Osiyo Yevroosiyo qit'asining janubi-g'arbida joylashgan bo'lib, Turkiya, Eron, Iroq, Suriya, Livan, Isroil, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Yaman, Ummon, BAA, Qatar, Kuvayt va Bahrayn kabi davlatlarni qamrab oladi. Mintaqa keng hududlarni egallab, Janubiy Kavkaz va Arab yarimoroli orqali Hind okeani, Qizil dengiz, Fors ko'rfazi, Arab dengiziga chiqish imkoniyatiga ega. Tektonik faollik yuqori bo'lib, Anadolu va Eron plitalarining harakati natijasida kuchli zilzilalar, tog' yuzaga kelishi va strukturaviy murakkablik kuzatiladi. Mintaqaning yer yuzi shakllari katta farqlanadi: Anadolu va Eron balandliklaridan tortib Arab yarimorolining qumli pasttekisliklari hamda Mesopotamiyaning unumdor vodiylarigacha turli relyeflar mavjud.

Mintaqaning iqlimi o'ta xilma-xil bo'lib, quruq subtropikdan to tog'li o'lkalarning sovuq iqlimigacha o'zgaradi. Arab yarimoroli jahondagi eng quruq mintaqalardan biri hisoblanadi — yog'ingarchilik yillik 50 mmdan kam bo'lgan hududlar keng tarqalgan. Shimol va shimol-sharqdagi tog'lar (Tavr, Zagros) nisbatan ko'proq yog'ingarchilik oladi va yirik daryolar — Dajla va Frotning suv manbaiga aylanadi. Cho'l va yarim cho'l zonalar ustunlik qilsa-da, o'rmonli tog'li hududlar, subtropik janubiy sohillar va daryo vodiylarida o'simlik va hayvonot dunyosining boy xilma-xilligi mavjud. Mintaqa biogeografik jihatdan ham muhim bo'lib, u Afrika, Osiyo va Yevropani bog'lovchi migratsion ko'priklar vazifasini bajaradi.

2-mavzu. Shimoliy Afrika mintaqasining tabiiy geografiyasi: chegaralari, relyefi, gidrografiyasi, iqlimi

Shimoliy Afrika Afrika qit'asining Jazoir, Tunis, Marokash, Liviya, Mis va Sudanning shimoliy qismi kabi davlatlarni o'z ichiga oladigan keng mintaqadir. Hudud Atlantika okeanining sharqiy sohillaridan to Qizil dengizgacha cho'zilib, asosan Sahro cho'li bilan qoplangan. Sahro — dunyodagi eng yirik quruq cho'l bo'lib, bu mintaqaning relyef va iqlim xususiyatlarini belgilab beradi: baland qum do'nalar, qoyali platolar, yerosti suvlari asosida shakllangan oazislar, tog' tizmalari (masalan, Atlas tog'lari) va dengiz bo'yi pasttekisliklari uning asosiy geografik tarkibiy qismlaridir. Atlas tog'lari Marokash, Jazoyir va Tunis bo'ylab cho'zilib, mintaqaning shimolida nisbatan nam va unumdor hududlar vujudga keltiradi.

Mintaqaning iqlimi asosan quruq va subtropik xususiyatga ega bo'lib,

Sahro cho'lida yillik yog'ingarchilik 50 mmdan kam quyiladi; kunduzi yuqori harorat (40–50°C) va kechasi tez sovish holati kuzatiladi. Shimolda, Yaqin Atlantika va Ovroosiyodan ta'sir etuvchi Ovro-Janubiy Ovqatli (Mediterranean) iqlim ta'siridagi sohil zonalarida yozlari issiq va quruq, qishlari esa nisbatan quruq-soqin va yoqin yog'ingarchilik bilan kechadi. Nil daryosi mintaqaning asosiy gidrografik omili bo'lib, Misr va Sudanning qishloq xo'jaligi, aholi joylashuvi va iqtisodiy hayotini ta'minlaydi. O'simlik dunyosining katta qismi cho'l va yarim cho'l landshaftlariga xos bo'lib, ammo Atlas tog'lari va Ovroosiy oqlimiga moyil sohillarda o'rmon va butazorlar saqlangan, Qizil dengiz sohillari esa dengiz ekosistemalarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

3-mavzu. Mesopotamiya sivilizatsiyasi

Mesopotamiya tarixi, madaniyati, turmush tarzi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini qisqacha o'rganiladi. Mavzu davomida quyidagilarga e'tibor qaratiladi: Mesopotamiya manbashunosligi va tarixnavisligi. Mesopotamiyada qadimgi davlatchilikning vujudga kelishi (shahar-davlatlar). Mesopotamiyaning eng qadimgi davlatlari. Shumer va Akkad. Sargon I va uning harbiy yurishlari. Mesopotamiya madaniyati.

4-mavzu. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi

Qadimgi Misr tarixi, madaniyati, turmush tarzi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini qisqacha o'rganiladi va quyidagilarga e'tibor qaratiladi: Qadimgi Misr manbashunosligi va tarixnavisligi. Qadimgi Misr davlatining paydo bo'lishi. Misr Qadimgi Podsholik davrida (miloddan avvalgi 2800-2250 yillar). Misr O'rta Podsholik davrida (miloddan avvalgi 2250 -1750 yillar). Misr Yangi Podsholik davrida (miloddan avvalgi 1580 -1125 yillar). Qadimgi Misr madaniyati.

5-mavzu. Qadimgi Arabiston tarixi

Main davlati Yamanning Jouf degan joyida hozirgi Sanadan sharqroqda vujudga keldi. Mil.avval IX asr o'rtalarida Mainga qo'shni bo'lib, Sabo, Qatabon va Avson davlatlari paydo bo'ldi. Janubiy Arabistonning qadimgi davlatlari orasida eng mashhuri Sabodir. Himyar mamlakati. Nabotiyar davlati. Tadmur davlati. Laxmiylar (Hira) davlati. G'assoniylar davlati. Kinda. Qadimgi Hijoz. Yasrib (Madina) – shahar-davlati.

6-mavzu. Islom dinining vujudga kelishi va tarqalishi

Vahiy kelgunga qadar Muhammad alayhissalomning Makkadagi faoliyatlari. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hayotlariga taalluqli siyosiy-tarixiy ma'lumotlar. Payg'ambar alayhissalomga vahiy kelish fenomeni va Makkadagi va'zlari. Musulmon jamoasining Habashistonga hijrati. Hoshimiylarga qarshi Quraysh zodagonlarining ittifoqi. Birinchi va ikkinchi Aqaba bay'ati. Musulmonlarning Makkadan Yasrib (Madina)ga hijrat etishii

va yangi shahardagi diniy-ijtimoiy masalalar. Payg'ambar (s.a.v.)ning Madinadagi ilk islohotlari. Muhojirlar, ansorlar va yahudiylar. Payg'ambar (s.a.v.) bilan "munofiqlar" o'rtasida o'zaro kelishmovchiliklarning boshlanishi.

7-mavzu. Ilk o'rta asrlarda Arabiston yarim orolida davlatchilik an'analarining shakllanishi. Roshid xalifalar davrida Arab xalifaligi (632-661-yillar)

Madina shahar-davlatining hijratdan keyingi taraqqiyoti. Payg'ambar (a.s.) vafotidan so'ng jamoa-davlatni teokratik-avtoritar uslubda boshqarishda ro'y bergan o'zgarishlar. Xalifalik institutining shakllanishi. Xalifa tayinlash uslublari. Bay'at berish turlari.

Abu Bakr Siddiqning xalifa etib saylanishi. Ar-Ridda harakati. Mutanabbiylar. Harbiy, iqtisodiy islohotlar. Xalifa Abu Bakr davrida zakot solig'ining tartibi. Qur'onning yozma holatga keltirilishi. Umar ibn Xattobning xalifaligi (634-644 yillar). Umar ibn Xattobning xalifa etib saylanishi. Tashqi fathlar. Umar ibn Xattob islohotlari. Xolid ibn Volidning sarkardalikdan bo'shatilishi. Aholidan olinadigan soliqlarning tartibga solinishi va davlatdagi soliq siyosati. Umar ibn Xattobning o'ldirilishi.

Usmon ibn Affonning xalifa etib saylanishi. Usmon ibn Affon davridagi fathlar. Kufa, Basra, Misr, Shomdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat. Ichki beqarorlikning boshlanishi va ko'chayishi. Voliylarning o'zaro ixtiloflari. Usmon ibn Affonning o'ldirilishi. Ali ibn Abu Tolib xalifaligi (656-661). Ali ibn Abu Tolibning xalifa etib saylanishi. Sahobalar Usmonning qotillaridan qasos olishni talab qilishi. Alining ilk islohotlari. Jamal voqeasi. Ali va Muoviya o'rtasidagi o'zaro munosabat. Siffin janggi. Tahkim masalasi. Ali ibn Abu Tolibning o'ldirilishi.

8-mavzu. Arab davlatlari Umaviylar sulolasi boshqaruvi yillarida

Umaviylar - Yaqin va O'rta Sharq, Movarounnahrda xukmronlik qilgan (661 — 750). Asoschisi — Muoviya I. Uning davrida arablar g'arbda Shimoliy Afrika, Pirenei ya.o. ning katta qismi, sharqda Tabariston, Jurjon, Movarounnahr, Sind va b. hududlarni bosib olishgan. Muoviya I (661—680) va Abdulmalik davrida (685—705) davlatning harbiy, siyosiy, iqtisodiy qudratini oshiruvchi bir qancha ma'muriy va harbiy islohotlar o'tkazilgan. Xususan, xalifa lavozimi nasliy bo'lib qolgan, davlat xazinasi va davlat arxivi tashkil etilgan, arab tili davlat tili deb e'lon qilingan, yangi (oltin, kumush va mis) pul chiqarilgan, harbiy dengiz floti tashkil etilgan. U. poytaxtni Damashq sh.ga ko'chirganlar, shu tufayli bu xalifalikni Damashq xalifaligi deb ham atashadi.

9-mavzu. Arab davlatlari Abbosiylar sulolasi boshqaruvi yillarida

Abbosiylar (750–1258). Abul Abbas Abdulloh sulolaning birinchi xalifasi edi. Ikkinchi xalifa Saffohning ukasi Abu Ja'far Mansur (754–775) Bag'dod shahriga asos solib, poytaxtni shu yerga ko'chirdi. Abbosiylar hukmronligining

dastlabki davrida mulkchilik munosabatlari o'sib, savdo-sotiq rivojlandi. Xalifalikning iqtisodiy negizini, siyosiy va harbiy qudratini mustahkamladi. Ayniqsa Horun ar-Rashid va uning o'g'li Ma'mun zamoni Abbosiylar sulolasining gullagan davri edi. IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Abbosiylar xalifaligi zaiflasha boshladi, Afrikada ag'labiylar, Misrda tuluniylar, Xuroson va Movarounnahrda somoniylar Abbosiylar xalifaligidan ajrab chiqdilar.

10-mavzu. Arab-islom madaniyatining Yevropa va jahon madaniyatiga ta'siri

Yevropadagi aniq fanlar rivojida arablarning hissasi. Arab-musulmon tibbiyotining Yevropa tibbiyotiga ta'siri. Arablarning Yevropaga madaniy sohadagi ta'siri. Arab-islom me'morchiligining Yevropa me'morchiligiga ta'siri. Arab-islom faylasuflarining G'arb falsafasiga ta'siri. Arablar madaniy merosining Yevropaga etkazib berilishida Sitsiliya arablari va musulmonlari roli.

11-mavzu. Salih yurishlari davrida Yaqin Sharq

Sharq va G'arb. Fors madaniyati. Ispaniya orollarining boy berilishi. Saljuqiylarning kichik Osiyodagi faoliyatlari. Xristianlik. Salib yurishlaridan maqsad. Salib urushlarida qatnashgan davlatlar. Salib yurishlarining natijalari va oqibati. Misrda Ayyubiylar. Sulolaga asos solinishi. Davlat boshqaruv apparatidagi o'zgarishlar. Salibchilarga qarshilik ko'rsatilishi. Arab, turk va kurdlardan tashkil topgan armiyaning shakllanishi. Quddusning qayta olinishi. Fransuzlarning orqaga chekinishi. Ayyubiylar davrida ilm-fan va madaniyat.

12-mavzu. Arab davlatlari Usmonli imperiyasi tarkibida

Arab davlatlarining Usmonli imperiyasi tarkibiga qo'shilishining o'ziga xos jihatlari. Suriya va Falastindagi ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat hamda siyosiy beqarorlik. Salim I ning Suriya va Falastindagi faol targ'iboti va Suriya va Falastinni usmoniylar saltanatiga qo'shish olishi. Hijozni egallanishi. Safaviylarning Iroqdagi siyosati va aholining turli qatlamlaridagi norozilik. Kurdlarning isyoni. 1514-yilda ba'zi kurd knyazliklari o'zlarining avtonom maqomini saqlab qolgan holda Usmonli sultoni homiyligiga o'tdilar. 1515 yilda Yuqori Mesopotamiyada katta qo'zg'olon boshlandi, unga kurd zodagon oilalari vakillari boshchilik qildilar. 1516 yilda usmonliylar Porta va Yuqori Mesopotamiya ustidan homiylik e'lon qildi. 1516 yil butun Shimoliy Iroq Usmonlilar hukmronligi ostiga o'tdi. 1533-yilda Sulton Sulaymon (1520-1566) o'zining birinchi fors yurishini boshlab, Safaviylarga qarshi kurashdi va Iroq va Sharqiy Arabistonda o'z ta'sirini mustahkamladi.

13-mavzu. XVI-XIX asrlarda Iroq va Suriya (Shom)

Iroq Usmoniy imperiyasi tarkibiga kirishi bilan unda quyidagi eyaletlar tashkil qilindi: Bag'dod, Basra, Mosul, Shahrizor. Eyaletlarning

huquqiy holati, ularni boshqarish tizimi, ichki tuzilishi, huquq va majburiyatlari maxsus qonun bilan o'ratildi. Eyaletlar sanjaklarga bo'lindi. Iroq eyaletlarining ma'muriy-huquqiy darajasi turlicha bo'lib, bu usmoniyar tomonidan o'ratilgan edi.

Hozirgi Suriya, Livan, Iordaniya, Falastin va Isroil hududlari tarixan bitta geografik mintaqani (yoki mamlakatni) tashkil qilib, o'rta asr arab manbalarida Suriya (Suriyya, ash-Shom) nomi bilan mashhur bo'lgan. 1516-yilda Usmoniyar sultoni Sulton Salim Yavuz (1512-1520) Suriyani bosib oldi. Suriya uchta viloyatga – Damashq, Xalab, Tripoliga ajratildi. Keyinchalik, XVII asrda Damashq va Tripoli viloyatlarining dengizbo'yi hududlaridan yana bitta viloyat – Sayda tashkil etildi. Suriya aholisining diniy tarkibi ham ancha xilma-xil edi. Musulmonlar ko'pchilikni – aholining 85% ini tashkil qilar, shundan 80% i sunniylar, qolgan qismi shialar (shu jumladan druzlar, alaviylar va ismoiliylar) edi. Aholining 15% ga yaqini xristianlar bo'lib, ularning ichida pravoslav va maronit mazhabiga mansublar ko'pchilikni tashkil qilardi. XIX asr oxirigacha yahudiy diniga mansublar Sutiya umumiy aholisining 1% idan oshmasdi.

14-mavzu. XVI-XIX asrlarda Arabiston yarim oroli davlatlari

Arabiston arab dunyosining eng qoloq hududlaridan biri edi. Yarim orolda feodal tartiblar bilan birga ibtidoiy munosabatlar qoldiqlari va qulchilik ham keng tarqalgan. Ko'chmanchi-badaviylar va vohaning o'troq aholisi ko'plab dushman qabilalarga bo'linib ketgandi. Arabiston aholisining xo'jalik ehtiyojlari hamda chet el bosqinchilari (Usmoniyar imperiyasi, Eron va yevropalik mustamlakachilar) xavfi mayda amirliklarning birlashish tendensiyasini tug'dirdi. Birlashish o'ta murakkab, ziddiyatli, iqtisodiy va siyosiy qoloqlik sharoitida amalga oshirildi. Chunki Muhammad davridan to vahhobiylilik paydo bo'lgungacha Arabistonda yagona hokimiyat va barqaror tinchlik bo'lmagan edi. Asrlar davomida u mayda-mayda davlatlarga, ko'chmanchi qabilalarga va ularning ittifoqiga bo'linib, to'xtovsiz o'zaro urushlar olib borardi. Alohida vohalar va qabilalarning iqtisodiy tarqoqligi, mustaqil xo'jalik yuritishga moslashganligi, cho'l yarimorolning bepoyonligi, aholi yashash joylarining bir-biridan ba'zan yuzlab kilometr uzoqlikda joylashganligi siyosiy tarqoqlikning asosiy sabablaridan edi. Arab aholisining qabilachilik va mahalliychilik odatlari, shevalardagi farq, diniy tasavvurlarning xilma-xilligi ham birlashishga to'siq bo'layotgandi. Umumiy dushmanga qarshi kurash zarurati qabilalarni birlashishga undayotgan asosiy faktor edi.

15-mavzu. XVI-XIX asrlarda Misr va Liviya

XVI asrda Mamluklar hukmronligi ostida bo'lgan Misr ham birinchilardan bo'lib usmoniyar tomonidan bosib olindi. 1517 yilning boshida Qohirani egallagan Salim I armiyasi Misr poytaxtini taladi va vayron qildi. Turklar istilosi mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga

katta o'zgarish kiritmadi. Faqat mamluklarning siyosiy hokimiyati ag'darilib, barcha feodallar o'z mulklari va imtiyozlarini saqlab qoldilar. Misr alohida posholikka ajratilgan bo'lib, amalda yarim mustaqil davlat edi. Oliy hukmdor Istantbuldan tayinlanadigan posho hisoblanardi. Mahalliy boshqaruv hokimiyati to'liq mamluk amirlarining qo'lida saqlanib qoldi. Turklar mamluklarning boshqaruv mahorati, mahalliy sharoitni, aholining urf-odatlarini yaxshi bilishidan o'z manfaatlarida foydalandilar.

1551 yili usmoniylar qo'shini Liviyani imperiyaga qo'shib oldilar. Tarixiy Liviya hududi Tripoli eyaletiga birlashtirildi. Eyalet uchta sanjaklik – Tripoli, Misurat, Beng'ozu sanjakliklariga bo'lindi. Usmoniylar o'rnatgan tartib dastlab xo'jalikning rivojlanishiga olib keldi. Ispanlarga qarshi uzoq yillik urushlardan so'ng odamlar o'z yashash joylariga qaytish, vayron qilingan xo'jalikni, irrigatsiya inshootlarini tiklash, yerlarga ishiov berish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

16-mavzu. XVI-XIX asrlarda Jazoir, Tunis va Marokash

Jazoirda Xayriddin Barbarossa ispanlarga qarshi kurashda yordam so'rab usmoniylarga murojaat qildi. Turkiya sultoni Salim I Yovuz Shimoliy Afrikada o'rnatish uchun bu imkoniyatdan foydalanishga urindi va Xayriddinga beylarbeyi unvonini berdi, Jazoirga yirik yanicharlar korpusini, harbiy kemalar, artilleriya va moliyaviy yordam jo'natdi. Turklarning yordamiga tayangan Xayriddin birin-ketin Jazoir shaharlarini ispanlardan ozod qildi. Xayriddindan keyin Jazoirni boshqargan Hasan posho (1544–1552) ham otasining siyosatini davom ettirdi. Jazoir Istantbulga rasman bo'ysunsa-da, Hasan poshoning o'zi deyarli mustaqil siyosat olib bordi. Portugal' a Oran XVIII asr oxirigacha ispanlar qo'lida saqlanib qoldi. Xayriddin va uning vorislari davrida shakllangan Jazoirning harbiy-siyosiy tizimi XIX asr boshlarigacha o'zgarmasdan qoldi.

1574-yili 320 ta kemada Tunis qirg'oqlariga tushgan 40 ming kishilik turk qo'shinlari bu yerda ispanlar hukmronligi va hafsiddar sulolasi hokimiyatiga xotima yasadi. Tunisning turklar tomonidan zabt etilishi bu yerda usmoniylar siyosiy tartibining o'rnatilishiga olib keldi. Biroq Afrikaning boshqa joylarida bo'lgani kabi Tunisda ham Portaning hokimiyati rasmiy xarakterga ega edi. Amalda mamlakatni deylar va yanicharlar boshqarar edi.

XVI asrda Marokashning yuksalishiga eng katta hissa qo'shgan sulton Ahmad al-Mansur (1578–1603) bo'ldi. U savdoni rivojlantirdi, qo'shni davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. Uning tashqi siyosati ancha keng qamrovli edi. 1590–1591-yillari G'arbiy Sudan hududida joylashgan Songay davlatini bosib olishni tashkil qildi. Marokashlik-lar uzoq yillar Songaydagi oltin va tuz konlarini ekspluatatsiya qildilar. Bu yerdan minglab qora tanli qullarni sotdilar. Marokash xazinasi juda katta daromad ko'rди. Ahmad al-Mansur vafot etgandan so'ng uning o'g'illari o'rtasida boshlangan taxt uchun kurash oqibatda sulolaning to'liq inqiroziga olib keldi.

17-mavzu. I jahon urushi davrida arab davlatlari

Arablarning I jahon urushidagi ishtirokini ittifoqchilar g'alabasi va dushman kuchlarining mag'lubiyatini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biri, deb hisoblash mumkin. Shu munosabat bilan Arab Sharqining yaqin tarixi, xususan, arablarning I jahon urushidagi ishtiroki tadqiqotchilar va siyosatshunoslarning diqqat markaziga aylandi.

I jahon urushidagi arablarning o'rni har tomonlama tushunishga harakat qilib, o'sha fojiali davrda arab xalqlari global ahamiyatga ega voqealarda muhim rol o'ynamay, frontning qarama-qarshi tomonlarida bo'lgan. Umuman, urushda arablarning o'rni haqida birma-bir baho berish juda qiyin. I jahon urushi arab davlatlarining Yevropa mustamlakachiligiga qaramligini yanada orttirdi.

18-mavzu. 1919-1939-yillarda Yaqin Sharq va Fors ko'rfazi arab davlatlari

Versal-Vashington tizimining asoschilari I jahon urushining asosiy sabablaridan biri mustamlakalar, dunyoni qaytadan bo'lib olish muammosi bo'lganligini yaxshi tushunishar edi. Bu muammoni yumshatish maqsadida Antanta davlatlari 1919-yili Germaniyaning sobiq mustamlakalarini va Usmoniy imperiyasi tarqalgandan so'ng undan ajralib qolgan hududlarni boshqarish uchun xalqaro vasiylik tizimini joriy qildi. U "mandat tizimi" deb nomlanib, Millatlar Ligasining Ustavida huquqiy jihatdan belgilab qo'yildi.

Mandat tizimi joriy qilinishi bilan yevropaliklardagi bu hududlarga abadiy egalik hissi, mulkchilik hissi barham topdi. Bundan tashqari, mus-tam-laka xalqlarining o'zlarida ham milliy ong, milliy g'urur, mustaqillik kabi tushunchalar shakllanib bordi. Bular esa mustamlaka tizimi qilashi uchun juda katta omil bo'ldi. Bundan tashqari, mandat tizimi I jahon urushidan keyin Yaqin Sharqning zamonaviy siyosiy xaritasi shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Aynan shu tizim mintaqadagi mamlakatlar zamonaviy davlatchiligining asoslarini yaratdi.

19-mavzu. 1919-1939-yillarda Shimoliy Afrika arab davlatlari

I jahon urushidan keyin arab aholisi bo'lgan hududlarning bir qismi Usmoniy qaramligidan chiqarib yuborildi, ammo G'arb davlatlariga mustamlaka yoki yarim mustamlaka qaramligiga tushib qoldi. Usmonli imperiyasining qulashi va undan oldingi arab mulklarini olib chiqib ketishi munosabati bilan "arab ummatlari" g'oyasi Usmonlilarga qarshi yo'nalishini yo'qotdi va mustamlakachilikka qarshi va qisman g'arbiy xarakterga ega bo'ldi, chunki aynan G'arb davlatlari, birinchi navbatda mustamlakachi Angliya va Fransiya asosiy tashqi dushmanlar deb hisoblana boshladilar. "Arab jamiyati" I jahon urushidan keyin Mag'rib va Mashriq hududlarida mavjud bo'lgan umumiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatni boshqardi. Shuningdek bu davrda arablarning mustamlakaga qarshi va milliy harakatining mafkuraviy asoslari shakllandi. Arabiston yarim orolidagi

arablarning milliy-ozodlik harakati muammolari va xususiyatlari.

20-mavzu. Arab davlatlari II jahon urushi yillarida

Arablarning II jahon urushidagi ishtirokini ittifoqchilar g'alabasi va dushman kuchlarining mag'lubiyatini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biri deb hisoblash mumkin. Shu bilan birga, Urushdan keyingi yillarda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasi yirik harbiy to'qnashuvlar zonasiga aylandi. Shu munosabat bilan Arab Sharqining yaqin tarixi, xususan, arablarning II jahon urushidagi ishtiroki tadqiqotchilar va siyosatshunoslarning diqqat markaziga aylandi.

II jahon urushidagi arablarning o'rni har tomonlama tushunishga harakat qilib, o'sha fojiali davrda arab xalqlari global ahamiyatga ega voqealarda muhim rol o'ynamay, frontning qarama-qarshi tomonlarida bo'lgan. Umuman o'sha urushda arablarning o'rni haqida birma-bir baho berish juda qiyin. II jahon urushi arab davlatlari milliy mustaqilligi uchun asos bo'ldi.

21-mavzu. Yaqin Sharq mojarosi va uning arab davlatlari taraqqiyotiga ta'siri

Isroil davlatining tashkil etilishi. Arab xalqlarining parchalanish sabablari. 1956-yilgi Suvaysh inqirozi va uning oqibatlari. 1967-yil iyundagi "olti kunlik" urush. Arab mamlakatlari birligining shakllanishi. Arab davlatlarining mustahkamlanishi. 1973-yilgi urush. 1979-yilgi Kemp-Devid bitimi. Arab davlatlari o'rtasidagi parchalanish. 90-yillarda Isroildagi ichki siyosiy kurashlar.

22-mavzu. Arab davlatlarida milliy ozodlik harakatlari (1946-1969)

II jahon urushidan keyin arab davlatlarining aksariyati G'arb davlatlariga yarim qaramlik holatida edi. Mustamlaka rejimi Jazoir, Tunis va Marokashda davom etdi. Livan, Suriya va Transjordanিয়া vakolatli hududlar bo'lib qoldi. Misr va Iroq G'arb davlatlari bilan ularning suverenitetini cheklaydigan shartnomalar tuzishdi. Arab-Isroil urushlari arablar dunyosining holati va tashqi siyosiy yo'nalishiga qanday ta'sir ko'rsatdi. 1952 yildagi Misrdagi inqilob arab dunyosida jiddiy oqibatlarga olib keldi. Suriya-Misr federatsiyasini amalga oshirishga urinish muvaffaqiyatsiz tugadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Suriya va Iroqda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda Baas partiyasining roli. Yangi arab suveren davlatlarini shakllantirishda armiyaning roli. Arab mamlakatlarida hokimiyat tepasiga kelgan dunyoviy siyosiy rejimlar muqarrar ravishda islomchilar bilan to'qnash kelishdi.

23-mavzu. 1970-1990-yillarda Arab mamlakatlarida Ijtimoiy-siyosiy vaziyat

1970-1990 yillarda Arab-Isroil qarama-qarshiligining mohiyati va sabablari. A. Sadadning siyosiy kursi va uning natijalari. Bir partiyali diktatura davrida Jazoirda islomiylikning kuchayishi. "Jamaxiriya" g'oyalarning Liviyadagi g'alabasiva bu jarayonda M. Qaddafiy roli.

Suriyadagi "tuzatish harakati". Hofiz Asad va uning o'g'li. Saddam Xuseyn davrida Iroqdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Saudiya Arabistoni Qirolligining ichki va tashqi siyosatini rivojlantirishda neftning roli.

24-mavzu. "Arab bahori" va arab davlatlarida yangi siyosiy inqirozlar

Arab bahori (al-Thawrat al-'Arabiyyah) 2010-yil oxirida arab dunyosida boshlangan qator e'tirozlarga berilgan nomdir. Ular Tunis, Misr, Yaman, Jazoir, Iordaniya, Mavritaniya, Saudiya Arabistoni, Ummon, Sudan, Siriya, Liviya hamda Marokash kabi mamlakatlarni qamrab oldi. E'tirozlar inqilob deya baholanmoqda. E'tirozlar 2010-yil 18-dekabrda Tunisda, Muhammad Buazizining politsiya poraxo'rligi va qattiqqo'lligiga achchiq qilib o'zini yoqib yuborishidan boshlanib ketdi. Tunis to'ntarilishi muvaffaqiyati va mintaqadagi o'xshash vaziyatlar tufayli, namoyishlar to'liqini qo'shni mamlakatlarga o'tdi, jumladan e'tirozlar Jazoir, Iordaniya, Misr va Yamanda davom etdi, nisbatan kichik miqyosda boshqa arab mamlakatlari ham voqealar silsilasiga tushdi. E'tirozlar natijasida birinchi bo'lib o'zgargan hukumat Tunisniki bo'ldi: sobiq Prezident Zayn al-Abidin ibn Ali Saudiya Arabistoniga qochdi. Keyingi katta e'tirozlar Misrda 2011-yil 25-yanvarida boshlandi. To'rt kunlik namoyishlardan so'ng Prezident Husni Muborak islohotlar o'tkazishga va'da berdi, biroq lavozimidan kechish niyatini bildirmadi. Bundan keyin davom etgan namoyishlardan so'ng Muborak 30 yillik mansabini boshqa egallamasligini, sentabrda bo'lib o'tadigan saylovlardan so'ng iste'foga chiqishini e'lon qildi. Bu paytda Iordaniya qiroli Abdulla II bosh vazirni almashtirdi, Yaman Prezident Ali Abdulloh Solih esa keyingi saylovlarda nomzodini qo'ymaslikka va'da berdi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

*O'rganilayotgan mintaq (mamlakat) geografiyasi va tarixi
(Arab mamlakatlari) fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi
mavzular tavsiya etiladi:*

- 1-mavzu. Janubi-G'arbiy Osiyo mintaqasining tabiiy geografiyasi: chegaralari, relyefi, gidrografiyasi, iqlimi
- 2-mavzu. Shimoliy Afrika mintaqasining tabiiy geografiyasi: chegaralari, relyefi, gidrografiyasi, iqlimi
- 3-mavzu. Mesopotamiya sivilizatsiyasi
- 4-mavzu. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi
- 5-mavzu. Qadimgi Arabiston tarixi
- 6-mavzu. Islom dinining vujudga kelishi va tarqalishi
- 7-mavzu. Ilk o'rta asrlarda Arabiston yarim orolida davlatchilik an'analarining shakllanishi. Roshid xalifalar davrida Arab xalifaligi (632-661-yillar)
- 8-mavzu. Arab davlatlari Umaviylar sulolasi boshqaruvi yillarida
- 9-mavzu. Arab davlatlari Abbosiylar sulolasi boshqaruvi yillarida

10-mavzu. Arab-islom madaniyatining Yevropa va jahon madaniyatiga ta'siri

11-mavzu. Salib yurishlari davrida Yaqin Sharq

12-mavzu. Arab davlatlari Usmonli imperiyasi tarkibida

13-mavzu. XVI-XIX asrlarda Iroq va Suriya (Shom)

14-mavzu. XVI-XIX asrlarda Arabiston yarim oroli davlatlari

15-mavzu. XVI-XIX asrlarda Misr va Liviya

16-mavzu. XVI-XIX asrlarda Jazoir, Tunis va Marokash

17-mavzu. I jahon urushi davrida arab davlatlari

18-mavzu. 1919-1939-yillarda Yaqin Sharq va Fors ko'rfazi arab davlatlari

19-mavzu. 1919-1939-yillarda Shimoliy Afrika arab davlatlari

20-mavzu. Arab davlatlari II jahon urushi yillarida

21-mavzu. Yaqin Sharq mojarosi va uning arab davlatlari taraqqiyotiga ta'siri

22-mavzu. Arab davlatlarida milliy ozodlik harakatlari (1946-1969)

23-mavzu. 1970-1990-yillarda Arab mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy vaziyat

24-mavzu. "Arab bahori" va arab davlatlarida yangi siyosiy inqirozlar

Amaliy mashg'ulotla multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Arabiston yarimorolidagi eng qadimgi jamiyatlar
2. Islom dinining paydo bo'lishi
3. Shimoliy Afrika va Fors Ko'rfazi mintaqasi
4. Qadimgi Shimoliy va Markaziy Arabiston
5. Musulmonlarning Makkadan Madinaga hijrati va uning ahamiyati
6. Arab mamlakatlari va uning qo'shni hududlar bilan munosabatlari
7. Arab mamlakatlarning mustamlakaga aylanishi va uning tarixiy ahamiyati
8. Qadimgi Shumer sivilizatsiyasi
9. Qadimgi Akkad sivilizatsiyasi
10. Mesopotamiya xalqlari yozuvi va yozma adabiyoti
11. Qadimgi Misr me'morchiligi va san'ati
12. Qadimgi Misr ehromlari tarixi
13. Qadimgi Misr yozuvi va yozma adabiyoti
14. Qadimgi va Yangi Bobil podsholigi
15. Ossuriya podsholigi
16. Qadimgi Suriya va Finikiya
17. Abu Bakr Siddiq davrida Arab xalifaligi
18. Umar ibn Xattob davrida Arab xalifaligi
19. Usmon ibn Affon davrida Arab xalifaligi

20. Ali ibn Abu Tolib davrida Arab xalifaligi
21. Umaviylar davrida Arab xalifaligi
22. Abbosiylar davrida Arab xalifaligi
23. Mamluklar davlati
24. Salib yurishlari davrida Yaqin Sharq
25. Salohiddin Ayyubiyning Quddus shahrini ozod etishi
26. Arab-islom madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi
27. Arab-islom madaniyatining jahon sivilizatsiyasiga ta'siri
28. Mo'g'ullar bosqini va Abbosiylar xalifaligining tugatilishi
29. Yaqin Sharq arab davlatlari Usmonli imperiyasi mustamlakachiligi ta'sirida
30. Shimoliy Afrika arab davlatlari Usmonli imperiyasi mustamlakachiligi ta'sirida
31. XVI-XIX asrlada Sudan va Liviya
32. XVI-XIX asrlada Jazoir
33. XVI-XIX asrlada Tunis
34. XVI-XIX asrlada Marokash va Mavritaniya
35. Arab davlatlarida yangi ijtimoiy fikr
36. Arab davlatlari XX asr boshlarida umumiy ijtimoiy siyosiy vaziyat
37. XX asr birinchi yarmida Falastin
38. XX asr birinchi yarmida Iroq
39. XX asr birinchi yarmida Suriya
40. XX asr birinchi yarmida Livan
41. XX asr birinchi yarmida Saudiya Arabistoni
42. XX asr birinchi yarmida Kuvayt, Bahrayn
43. XX asr birinchi yarmida Qatar va O'mon
44. Transiordaniya amirligining tashkil topishi
45. XX asr birinchi yarmida Misr
46. XX asr birinchi yarmida Sudan
47. XX asr birinchi yarmida Liviya
48. XX asr birinchi yarmida Jazoir
49. XX asr birinchi yarmida Tunis
50. XX asr birinchi yarmida Marokash va Mavritaniya
51. Osiyo va Afrika arab davlatlari rivojlanishlning asosiy xususiyatlari (1945-2022)
52. Globallashuv davri Arab davlatlari: rivojlanishning xususiyatlari
53. Misr: respublikaning taraqqiyot bosqichlari
54. Jazoir: diniy va dunyoviy hokimiyat tanlovi yo'lidagi og'ir kurash tarixi
55. Liviya: monarxiyadan jamahiriya qadar
56. Suriya: barqararlash yo'llari
57. Iroq: BAAS
58. Saudiya Arabistoni: zamonaviy boshqaruv va an'analar
59. Yaman va Fors ko'rfazi monarxiyalardagi ijtimoiy siyosiy vaziyat

3.	<p style="text-align: center;">60. Arab bahori va Arab davlatlarida yangi ziddiyatlar va siyosiy vaziyat</p> <p>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • arab mamlakatlari geografiyasining asosiy tushunchalari va atamalari, kursning boshqa fanlar bilan aloqalari, tabiiy va iqtisodiy geografiyaning nazariy asoslari haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • arab mamlakatlari geografiyasi xususiyatlarini bilish, o'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy-geografik rivojlanishini tahlil qilish uchun axborotlar, statistik ma'lumotlarni izlab topish, saralash va ulardan foydalanish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; <p>iqtisodiy-geografik jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, arab mamlakatlari aholisi, iqtisodiyot tarmoqlari, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishini tahlil qila olish malakasiga <i>ega bo'lishi kerak</i>.</p> <ul style="list-style-type: none"> • arab xalqlari tarixining asosiy bosqichlari, Arab davlatlarining dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasi mazmuni, insoniyat madaniyati tarixi kontekstida turkiy xalqlarning san'ati, madaniyati va urf-odatlari, Arab davlatlarining tarixiga oid asosiy manbalarning umumiy mazmuni, eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan Arab davlatlarining tarixiy rivojlanish tendensiyalari, Arab davlatlarining tarixining turli bosqichlarida uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillarning asosiy mazmuni, Arab davlatlari tarixan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari, arablarning siyosiy madaniyati xususiyatlari va ularning mentaliteti, Arab davlatlaridagi ijtimoiy va siyosiy institutlarning shakllanishi va faoliyatiga islomning ta'siri darajasi, Arab davlatlari tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlari, Arab davlatlari tarixi bilan bog'liq bo'lgan muhim atamalarning ma'nosi, Arab davlatlari tarixining muhim ijtimoiy-siyosiy voqeliklarining tarixiy kelib chiqishi va konteksti hamda ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanish haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganishi, internet ma'lumotlarini, Arab davlatlari tarixining asosiy bosqichlari va huquqiy mazmunini tahlil qilish, mustaqil ravishda Arab davlatlari tarixi bo'yicha adabiyot va manbalar bilan ishlash, Arab davlatlarining tarixiy rivojlanishining har bir bosqichidagi asosiy rivojlanish tendensiyalarini tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda turk siyosiy madaniyatining xususiyatlarini tushuntirish, mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy institutlarga islom omilining ta'sir o'tkazishi va uning darajasini tahlil qilish va aniqlash, Arab davlatlari tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlarini oqilona tahlil qilish, ko'rsatilgan atamalardan, shu jumladan ilmiy munozaralarda foydalanish, tarixiy va madaniy voqeliklarni tahlil qilish, <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • Arab davlatlari va boshqa mamlakatlarning tarixiy jarayonini tahlil
----	---

	<p>qilish, mustaqil ishlash, Arab davlatlari tarixiga oid masalalar bo'yicha ma'lumot izlash, uning tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda batafsil tavsiflash, jahon tarixiy jarayoni kontekstida Arab davlatlarining tarixiy-huquqiy va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, tarixiy rivojlanishning turli bosqichlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning tarixiy xilma-xilligini hisobga olgan holda siyosiy madaniyat va mentalitetning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida islom omili va uning turli xil ko'rinishlarini hisobga olgan holda tarixiy jarayonning asosiy yo'nalishlarini tushuntirish, Arab davlatlari tarixi bo'yicha ilmiy adabiyotlar va manbalardan, shuningdek ularda mavjud bo'lgan atamalardan foydalanish, Arab davlatlari tarixining asosiy parametrlari va tendensiyalarini yoritish va tahlil qilish, <i>malakalartga ega bo'lishi kerak.</i></p>
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshtirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qodirov Z.M., Abdullayev N.A., Ikromov Sh.I. Arab davlatlari tarixi (o'quv qo'llanma). - T.: TDSHI, 2018. 2. Qodirov Z.M. Arab davlatlari tarixi (qadimgi va o'rta asrlar) (o'quv qo'llanma). - T.: TDSHI, 2015. 3. Большаков О.Г. История Халифата. 4 жилд. Москва 1998-2005. 4. Ланда Р.Г. История арабских стран. М.: Восточный университет, 2005. — 320 с. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016. 6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –

	<p>T.: “O‘zbekiston”, 2017.</p> <p>7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.</p> <p>8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.</p> <p>9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T., 2021.</p> <p>10. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. – T., 2022.</p> <p>11. Фильштинский И.М. История арабов и халифата (750-1517 гг.) М. 2005</p> <p>12. Мюллер А. История ислама. От доисламской истории арабов до падения династии Аббасидов. Кн. 1-2. М.: АСТ, 2004. — 911 с.</p> <p>13. Беляев Е.А. Арабы, ислам и арабский халифат в раннее средневековье. М.: Наука, 2006. — 280 с.</p> <p>14. История Востока. 6 том. М.: Восточная литература, 2009. — 688 с.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>15. https://www.history.ru</p> <p>16. https://turuz.com</p> <p>17. https://www.ttk.gov.tr</p> <p>18. https://www.academia.edu</p>
7.	<p>O‘quv dasturi “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025-yil “<u>21</u>” <u>06</u>” dagi “<u>12</u>” - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p> <p>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil “<u>28</u>” <u>06</u>” dagi “<u>11</u>” - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ullar: Sh.Yodgorov - TDSHU, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Sh.I.Ikromov - TDSHU, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasida mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) D.J.Urakov – o‘zMU “Jahon tarixi” kafedrasida mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM).</p>